

TIBBIYOTNI RAQAMLASHTIRISH

Qo‘lyiyev Humoyun Zokir o‘g‘li

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi talabasi

Ilmiy rahbar: Ixrorova Surayyo Israilovna

Annotatsiya: Sog‘liqni saqlashning raqamli transformatsiyasi internet, raqamli texnologiyalar va ularning yangi davolash usullari va sog‘liqni saqlashni boshqarish tartib-qoidalarini yaxshilash uchun ilg‘or amaliyotlar bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Yig‘ilgan katta hajmdagi ma'lumotlar sifatini nazorat qilish bemorlarning farovonligini yaxshilashga va xizmatlar narxini kamaytirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: teletibbiyot, elektron poliklinika, IT-med, axborot kommunikatsiya.

Teletibbiyot, tibbiyotni raqamlashtirish hayotimizdagi barcha jabhaga, jumladan tibbiyotga ham kirib kelgan. “Teletibbiyot” so‘zi ko‘pchilik uchun yangilik hisoblanib, bu haqda tasavvur yetarlicha emas. Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish sog‘liqni saqlash tizimini jadal rivojlantirayotgan asosiy omillardan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda ommalashmoqda. Teletibbiyot tufayli aholining vaqti, moddiy resurslari tejaladi. Uyida o‘tirib klinikani, shifokorni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, tibbiy xizmatlardan teng va oson foydalanadi. Boshqacha aytganda, teletibbiyot tibbiy xizmatlarni zamonaviy texnik va telekommunikatsiya vositalari orqali masofadan turib olishdir. Onlayn telediagnostika yurtdoshlarimizga uyi dan chiqmasdan turib eng ilg‘or mahalliy va xorijiy ekspertlar maslahatini olish imkonini beradi. Natijada bemorlarning vaqti va mablag‘i tejalib, yo‘lkira va boshqa qiyinchiliklardan qutuladi.

Mamlakatimizda teletibbiyot xalqaro miqyosda tan olingan olim, akademik Malika Abdullaxo‘jayevaning sa‘yharakati tufayli faol rivojlana boshladi. 2000-yillarning boshida u birinchi bo‘lib Respublika patologoanatomya markazida teletibbiyot laboratoriyasini ochdi va shu yerda butun mamlakat aholisi uchun onlayn diagnostikani yo‘lga qo‘ydi. O‘sha yillari u nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyodagi ilk teletibbiyot laboratoriyalaridan edi. Malika Abdullaxo‘jayeva boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan ilk marotaba “Teletibbiyot to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan va muhokamaga qo‘yilgan.

Tibbiyot tizimini raqamlashtirish nafaqat yurtimiz, balki har qanday davlat uchun xos bo‘lgan qator muammolar, ayniqsa, qishloq joylarda sifatli tibbiyotning mavjud emasligi masalasini hal qilish uchun keng maydon va imkoniyat ochadi. Bu borada AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya, Gresiya, Irlandiya, Ispaniya, Kanada, Fransiya, Shvesiya, Shveysariya kabi davlatlar ancha ilg‘or. Shuningdek, Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruziya, Armaniston, Qozog‘istonda ham teletibbiyot bo‘yicha ko‘plab loyihalar samarali amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingani Yangi O‘zbekistonda tibbiyot sohasi rivojida katta qadam bo‘ldi. Konsepsiyada yurtimizda elektron sog‘liqni saqlash tizimini keng joriy etish, ya‘ni teletibbiyotni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Jumladan, teletibbiyot orqali yurtdoshlarimiz barcha tibbiyot muassasalari va ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar to‘g‘risida bemalol axborot olishi, ularni davolaydigan shifokorlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi, hatto qabul vaqtini ham masofadan elektron navbat orqali band qilib qo‘yishi mumkin. Shuningdek, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini,

jumladan, tibbiyot xodimlari faoliyatini baholash uchun mobil ilovalar orqali tizimdan foydalanish imkoniga ega.

Huquqiy tartib. Har qanday sohadagi, jumladan, teletibbiyotdagi munosabatlar ham huquqiy tartibga solinishga muhtoj. Tibbiyot huquqi hozirgi yurisprudensiyaning jadal rivojlanayotgan tarmog'i bo'lib, sog'liqni saqlash bo'yicha barcha munosabatlarni huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi. Shu ma'noda, teletibbiyot tibbiyot huquqining tartibga solish predmetidir. Hozirga qadar ko'plab davlatlarda teletibbiyot to'g'risida qonunlar qabul qilingan. Yurtimizda ham teletibbiyotni tartibga soluvchi maxsus qonunni qabul qilish davlat dasturida aks ettirilgan. Shu o'rinda teletibbiyot to'g'risidagi qonun mamlakatimiz uchun nimaga kerak, degan savol tug'ilishi mumkin. Birinchi navbatda, qonun teletibbiyotga doir murakkab jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi. Huquq ustuvorligini ta'minlaydi. Teletibbiyot jarayonidagi barcha ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 23-fevral kuni «Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror imzolandi. Hujjatga muvofiq Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi muassisligida «IT-Med» mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etiladi. U «Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi» DUK negizida tashkil etiladi hamda uning huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

«IT-Med» MChJ zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

sog'liqni saqlash tizimi va tashkilotlaridagi jarayonlarni optimallashtirish, ratsionallashtirish, standartlashtirish va avtomatlashtirish;

sog'liqni saqlash sohasida amalga oshiriladigan loyihalarning texnik-iqtisodiy parametrlari, konsepsiyalari hamda boshqa loyiha va loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish;

tibbiyot va farmatsevtika sohasida axborot texnologiyasi va kommunikatsiyalari siyosati va standartlarini, shuningdek sog'liqni saqlashning axborot tizimi yagona platformasini (keyingi o'rinlarda – Yagona platforma) joriy etish;

«Elektron sog'liqni saqlash» axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish va kuzatib borish, shuningdek ularning boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash;

sog'liqni saqlash tizimida biznes jarayon va IT-reinjiningini rivojlantirish va ushbu yo'nalishda xalqaro tajribani amaliyotga tatbiq etish;

investorlar, biznes hamkorlar va outsorsing xizmatlarini jalb qilish.

Undan tashqari tibbiyot muassasalarida bir qator axborot tizimlari, «Elektron poliklinika», TMEK, «Narkologik dispanser», «Psixologik dispanser», «Bemor», «Emlash», «Xatlov», «Tug'ilish va o'lim», «PsR-test tizimi» va «103» yagona axborotlashtirilgan boshqaruv tizimi ishga tushirilgan.

«Elektron poliklinika» axborot tizimiga 423ta birlamchi tibbiyot muassasalari ulanib, 10 546 nafar tibbiyot xodimlari ro'yxatdan o'tkazildi hamda 9 million nafarga yaqin bemorlar haqidagi ma'lumotlar shakllantirildi. Shifokorlarning ish jadvalini onlayn ko'rish va ularning qabuliga masofadan yozilish imkoni yaratildi.

Tez tibbiy yordam tizimi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida «103» yagona axborotlashtirilgan boshqaruv tizimi Toshkent shahrida tajriba loyiha doirasida ishga tushirilgan. Hozirda Toshkent shahar tez tibbiy yordam xizmati tomonidan «103» avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi uchun quyidagilarni ta'minlashga imkon beradigan dasturiy apparat kompleks joriy etilgan:

qo'ng'iroqlarni qabul qilish, xizmat ko'rsatish va ro'yxatdan o'tkazishni boshqarishning samarali mexanizmi;

tez tibbiy yordam avtomashinalarini boshqarishni nazorat qilish, monitoring qilish va optimallashtirish;

dispetcherlik xizmatini real vaqtda boshqarish, tahlil, ma'lumotnoma va hisobotlarni avtomatik yaratish;

yagona ma'lumotlar bazasi shakllantirish;

qo'ng'iroqlarni tezkor ro'yxatdan o'tkazish va bemor haqida ma'lumot olish;

hisobot hujjatlarini yaratish, ko'rish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/tibbietni_raqamlashtirish_uchun_yangi_korhona_tashkil_etiladi

<https://reg.ssv.uz/>

<https://m.kun.uz/news/2021/06/09/ozbekistonda-tibbiyotni-raqamlashtirish-maqsadida-mobil-ilovalar-ishlab-chiqilmoqda>